

BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI FANINING AHAMIYATI**Mamurjonova Shukrona Umidjon qizi****Farg'ona davlat universiteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talaba
muhamadalimirzoazizov@gmail.com****<https://doi.org/10.5281/zenodo.10781680>**

ANNOTATSIIYA: ushbu maqola ona tilining ahamiyati, ona tili fanining rivojlanishi, uning bosqichlari, hozirgi kunga qadar bosib o'tgan yo'llar, tarixiy shaxslarning ona tili haqidagi fikrlari va uning rivoji uchun qo'shgan hissalar haqida.

KALIT SO'ZLAR: ona tili, ma'naviyat, milliy, an'ana, nutq, og'zaki, yozma, mustaqil fikr, adabiyot.

Ona tili bu har bir millatning iftixori, yurtning borligini bildirib turuvchi eng asosiy manbasi sanaladi. Til bu - shu millatning tafakkur manbai, har bir yurt fuqorosining g'ururi, yurtdagi ma'naviy boyliklarning ko'zgusi hisoblanadi. Abdulla Avloniy bobomiz aytganlaridek : "Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurgan oyinai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur".

Yangilanish yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan O'zbekistonning bugungi bosqichida - milliylik kasb etgan, yuksalish talablaridan kelib chiqqan holda, hozirda ona tilimizga bo'lgan e'tibor va uning nufuzi yanada oshib bormoqda. Ona tilimizning asoschisi bo'lgan Alisher Navoiy nomidagi til va adabiyot universitetining tashkil qilinganligi bizga tilimizni tarixini yanada chuqurroq o'rganishga, unda yaratilgan ilmiy asarlarni har tomonlama rivojlantirishga va ona tilimizdan foydalanuvchilarning doirasini kengaytirishga zamin yaratadi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari belgilangan bo'lib, unda ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi; ta'limning uzluksizligi va izchilligi; o'rta ta'limning majburiyligi; ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi; davlat ta'lim standartlari (DTS) doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi; ta'lim dasturlarini tanlashda yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv; bilimli bo'lish va iste'dodni rag'batlantirish; ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish o'z ifodasini topgan.

Maktabda ona tilining o'qitilishi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda belgilangan ana shu prinsiplarga tayanadi.¹

O'sib kelayotgan yangi avlod vakillarining asosiy vazifalaridan biri bu tarixdagi bilimlarni o'rganish va ularni rivojlantirishdir. Bugungi kundagi taraqqiyot va jamiyat rivojini busiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Kelajak avlodga bu tarixni yetkazishning yagona yo'li esa ta'lim sohasidagi rivojlanishni kuchaytirish va tinmay oshirish orqali yetuk kadrlar tayyorlash va bilim bilan qurollantirish.

Boshlang'ich sinflarda ona tili fani o'zbek tilini mukammal o'zlashtirishlari, nutqini o'stirishlari va boyitishlari, o'qish va yozishni o'rganishlari, grammatika va imloni bilishlari uchun maktab o'quv rejasiga kiritilgan ilmiy fandir. Bu fanni o'rganish jarayonida o'quvchilardan ijodiy va mustaqil fikrlash, ongi ostida esa ma'naviy-ma'rifiy inqilob hosil bo'lishi talab etiladi. Shu maqsadda yangi yaratilayotgan dastur va darsliklar ma'lum grammatik qoidalarni yodlashga emas, balki, ijodiy tafakkurini shakllantirish va dars mashg'ulotlari davomida o'quvchilarni

¹ G'ulomov A, Qodirov M, Ernazarova M, Bobomurodova A, Alavudinova N, Karimjonova V. ONA TILI O'QITISH METODIKASI. Toshkent-2012.

nutq malakasini rivojlantirishga moslab tayyorlanmoqda. Milliy qadriyatlarga e'tibor kuchaytirilib bu fanning bugungi darajaga kelishi ancha qiyin tarixni o'z ichiga oladi.

O'zbek xalqi juda qadim zamonlardayoq ilm-fanga katta e'tibor bilan qaragan va uni rivojlantirishga harakat qilgan. Ibn Sino, Beruniy, Al-Xorazmiy, Amir Temur, Ulug'bek va boshqa ko'plab allomalar ilm-fanni dunyoga tanitganlar. Ilm-ma'rifatga beqiyos hurmat bilan qaragan xalqimiz qanday qiyinchilik va to'siqlar bo'lmasin o'z farzandlarini savodli bo'lishini orzu qilganlar. Farzandlarini yoshligidanoq maktabga - o'qishga berganlar. Maktabdor domlalar o'z usullari va tajribalariga asoslanib, bolalarga saboq berganlar. Demak, O'zbekistonda o'qitishning o'ziga xos usullari mavjud bo'lgan va ular rivojlanib borgan. Bu jarayon silliq kechgani yo'q. Ba'zi xato va kamchiliklarga ham yo'l qo'yilgan. Chunonchi, 20-yillarda maktabni rivojlantirishda juda jiddiy xatolarga yo'l qo'yildi. Kompleks dasturlarda ona tilini o'rganish tizimi buzildi: grammatik, orfografik ko'nikmalarga yetarli ahamiyat berilmadi. Savod o'rgatishda yaxlit so'z metodi tilning fonetik xususiyatlariga mos kelmadi, analitik-sintetik ishlarni ta'minlamadi, puxta, to'g'ri yozuv masalalari uchun zamin yaratilmadi. Keyinchalik 1931-yil 5-sentyabr "Boshlang'ich va o'rta maktab haqida" gi, 25 avgust 1932-yil "Boshlang'ich va o'rta maktab o'quv dasturlari rejimi haqida"gi Qarorlar yuqoridagi kabi yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni bartaraf qilishda va o'quv mashg'ulotlari tizimini ishlab chiqishda maktabga vao'qituvchilarga yordam berdi. Tezlik bilan savod o'rgatishda analitik-sintetik tovush metodi qayta tiklandi. Grammatik, orfografik materiallarni izchil o'rgatishga, o'quvchilarning har tomonlama savodli bo'lib, madaniy nutqni egallashlariga katta ahamiyat berila boshlandi. O'quvchilar va o'qituvchining o'quv mehnatini tashkil etishning asosiy shakli bo'lgan dars metodikasi muvaffaqiyatli ishlana boshlandi.²

O'zbek tilshunosligi sohasidagi o'zgarishlar va sohaga kirib kelayotgan so'zlar lug'at boyligimizni boyitibgina qolmasdan bizni amaliy hayotimizga ham kirib kela boshladi. Ona tili fanini boshlang'ich sinflarda o'rgatish metodikasi yuqori sinf ona tili o'qituvchilarining ommaviy ish tajribalari asosida amalga oshirilmoqda. Chunki boshlang'ich ona tili fani yuqori sinf ona tili kursining elementlarini o'rganadi. Filologlarni tayyorlovchi pedagogika institutlari qoshida 1955 - yildan boshlab boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari tayyorlaydigan fakultetlar ochila boshlandi. Bu ham boshlang'ich sinflarga ona tili fanini chuqurroq o'rgatishga bir imkoniyat yaratdi. Bizning mustaqil davlat sifatida ajralib chiqish uchun ilk bosgan qadamimiz 1989 - yil 21- oktabrda "O'zbek tiliga Davlat tili maqomini berish haqida" gi qarorni imzolanishi bilan boshlangan. Avvalari 1-2- sinf o'quvchilariga ona tili darslari qo'yilmas edi. Ona tiliga berilgan ulkan e'tiborlar, ta'lim sohasidagi bu kabi o'zgarishlar bu fan rivojiga o'z ta'sirini o'tkazdi. Hozirgi kunda nafaqat 1- sinfdan balki maktabga qadam qo'ymasdan ham o'quvchilar o'z tilidan tashqari boshqa tillarni ham o'rganib kelishmoqda. Chunki, zamon talabi hozirda aloqani o'rnatish va og'izaki nutq orqali o'z fikrini erkin namoyon qilishdir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 - yil 13 - maydagi "O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'limni tashkil etish to'g'risida" gi 203 - sonli qarorida umumiy o'rta ta'lim ikki bosqichdan iborat qilib belgilandi:

1. Boshlang'ich ta'lim.

² Qosimova K.Matchonov S.G'ulomova X.Yo'ldosheva Sh.Sariyev Sh.ONA TILI O'QITISH
METODIKASI."Bayoz" Toshkent.2022.12-13-bet

2. Umumiy o'rta ta'lim.³

Demak, yuqoridagi qonunga ko'ra, 1-4-sinf o'quvchilariga ona tili va o'qish fanlarining boshlang'ich tushunchalari va predmetlari, o'qishning to'g'ri, tez, ongli, ifodali kabi texnikasini o'zlashtirishlari, berilgan matnga yoki keltirilgan biror munosabatni yoki fikrlarni tushunish malakasi, og'izaki ifoda etgan fikrini yozma bayon qila olish malakasi bo'yicha bilim, ko'nikma, malakalar berishning minimla darajasi mutaxassislar tomonidan belgilab berildi. Shu tufayli ona tiliga katta vazifa yuklatildi: ona tili faniga faqatgina fan sifatida emas, balki butunlar fanlarni, ta'lim tizimini uyushturuvchi ta'lim tizimi sifatida qaraldi. Ona tili faniga qo'yilgan minimal talablar asosan uch bosqichni o'z ichiga oladi: ya'ni boshlang'ich sinf o'quvchilari ona tili va o'qish fanlaridan o'qish texnikalarini egallashlari, o'qigan yoki yozgan matnni va fikrni tushuna olishlari, bildirilgan fikrni yozma bayon qila olishlari kerak. Bu talablarni amalda qo'llab o'quvchilarda sinash uchun yangicha o'qitish tizimi va texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tatbiq etish talab etiladi.

Hozirgi kunda o'quvchilarga bilim berish, o'rgangan bilimlarini oshirish va hayotiga amaliy tatbiq etishda mustaqil va loyiha ishlari uyushtirilmoqda. O'quvchilar bilim darajasini hisobga olgan holda asta sekin yuqori sinf materiallari bosqichma bosqich boshlang'ich sinflarga olib kirilmoqda. Zamonaviy asrda texnik vositalar bilan darsni yanada qiziqarli qilib o'tish, grammatik ta'limiy o'yinlardan foydalanish va ta'limga joriy etish juda ommalashmoqda. Ta'lim jarayonida turli xildagi mantiqiy topshiriqlar va interfaol metodlardan foydalangan holda dars mashg'ulotlari uyushtirilmoqda.

Ona tili darslarida o'quvchilarga uzundan uzun grammatik qoidalarni yodlashga majbur qilmasdan, balki ularda o'z tilida erkin muloqot qilishi uchun va sof o'zbek tilida so'zlashishi uchun, mustaqil fikralishini, so'zdan lazzatlana olishini rivojlantirishimiz kerak. Ona tili fanidan kutilayotgan natija ham shu aslida. Biz o'quvchilarga ona tili fanini o'rgatishimiz boshqa fanlarni o'rganish uchun "kalit" vazifasi sanaladi.

Tilning yozma shakli yozuv haqida Buyuk bobokalonimiz Zahiriddin Muhammad Bobur juda ma'noli so'zlar aytgan, ya'ni, tilni ko'pchilik tushunishi uchun ravon va oson usulda suhbatlar uyushtirgan. Hattoki, bir safar o'g'li Humoyun o'z maktubida murakkab so'zlardan foydalangani uchun uni koyib xatini takalluflarsiz va pok tarzda yozishi o'ziga va maktubni o'quvchiga tashvish bo'lmasligini ta'kidlagan. Bobur o'z zamonida zamondoshlariga balandaparvoz va qiyin so'zlardan foydalanmaslikka da'vat etgan.

Munis Xorazmiyning "Savodi ta'lim"i nazm bilan yozilgan pedagogik asar bo'lib, chiroyli xat yozish usullari o'rgatiladi. Asarning birinchi qismida xat mashq qilishga tayyorgarlik va bu ish uchun kerakli asboblarga to'g'risida so'z yuritiladi. Ikkinchi qismida esa xat mashqi va uning usullari haqida amaliy yo'l bilan ta'lim beriladi. Asarda kishilik jamiyatida yozuvning katta ahamiyatga ega ekanligi qayd qilinadi.⁴

XV asrdan XIX asrning 2-yarmigacha o'tgan davrda O'rta Osiyoda pedagogik, metodik fikr o'sdi. Bu davrda o'nga yaqin lug'atlar va tilshunoslik asarlari (Tali Imoniyning "Badoe al-lug'at"i (XV asr), Muhib Ali Shabluning "Lug'ati Navoiy"i (XVI asr), Mustafu Binni Sodiqlarning "Abushqa"si

³ Qosimova K.Matchonov S.G'ulomova X.Yo'ldosheva Sh.Sariyev Sh.ONA TILI O'QITISH
METODIKASI."Bayoz" Toshkent.2022.14-bet

⁴ G'ulomov A, Qodirov M,Ernazarova M, Bobomurodova A, Alavudinova N,Karimjonova V. ONA TILI O'QITISH
METODIKASI.Toshkent-2012.8-bet

(XVI asr), Fazlulloxning “Lug’ati turkiy”i (XVIII), Mirza Mehdixonning “Sangloh”i (XVIII), Fatx Alixonning “Kitobi lug’ati atrokiya”si (XIX asr) yuzaga keldi. Ularda tovush va harf, imlo va talaffuz, so’z ma’nosi va tarjima kabi masalalarni o’zlashtirishga qaratilgan metodik fikrlar mavjud.⁵

1918-1923- yillar oralig’i ona tili va adabiyoti faning rivojlanishi uchun asosiy yillar vazifasini bajardi. Bu yillarda maktablar uchun darsliklar o’quv rejalar tuzish uchun tajribali o’qituvchi va metodistlar shu tizimga qamrab olindi. Dastlabki dastur V-VII sinflar uchun ona tili va adabiyot fanlaridan ishlab chiqilgan. Boshlang’ich sinflar uchun 1920-1921-o’quv yillari uchun chiqarilgan dastur birinchi dastur hisoblanadi.

Biz yuqoridagilardan ko’rishimiz mumkinki, ona tili fani bugungi fan sifatida shakllanib rivojlanishi uchun juda murakkab bo’lgan yo’lni bosib o’tgan va hozirda ham shu yo’lda. Til vositasida o’quvchilar boshqa fanlarni ham o’zlashtirib og’izaki va yozma tarzda o’z fikrlarini bayon qilishadi. O’z tillarini mukkamal egallash shu til orqali amalga oshadi.

Ona tili haqida so’z yuritganimizda muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimovning quyidagi so’zlarini yodga olmasak bo’lmaydi: “Inson qalbining quvonch-u qayg’usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan kam topiladi. Ona tiliga muhabbat, unning bebaho boyligi va buyukligini anglash tuyg’usi ham bizning ong-u shuurimiz, yuragimizga, avvalo, Navoiy asarlari bilan kirib kelgan. Biz bu bebaho merosdan xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni qancha ko’p bahramand etsak, milliy ma’naviyatimizni yuksaltirishda, jamkiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarini kamol toptirishda shunchalik qudratli ma’rifiy qurolga ega bo’lamiz.”⁶

Birinchi Prezidentimizning tashabbuslari bilan mustaqillikka erishganimizdan so’ng maktablarda davlat tili-o’zbek tilining o’qitilishiga bo’lgan e’tibor yanada kuchaytirildi. “O’zbek tili” Respublika doimiy anjumanining ta’sis etilishi, “Ona tili” konsepsiyasining yaratilishi, DTSning qabul qilinishi va unga mos keladigan dasturning ishlab chiqilishi “Ona tili” fanidan yangi darsliklarning paydo bo’lishiga asos bo’ldi. Ona tili jarayonida o’qituvchi va o’quvchining o’zaro faoliyati birlashib bir butunlikni tashkil etadi.

O’zbekistonning mustaqil davlat bo’lganidan so’ng o’rta ta’lim maktablarida ona tili fanini o’qitishni o’zining iqtisodiy, ijtimoiy va ma’naviy vazifalardan biri deb hisobladi. O’sib kelayotgan kelajagimiz yoshlarida ijodiy fikrlash va tafakkur qilish, izlanish uchun, hozirgi berilayotgan imkoniyatlardan eng yaxshisini tanlash uchun, o’zbek tilining so’z boyliklaridan og’izaki nutqlarida foydalanish uchun, o’zbek xalqining naqadar buyuk o’tmishi borligini, uning an’analari-yu qadriyatlarini bilish va shular asosida ko’nikma hosil qilish uchun maktab ona tili kursi katta yordam beradi. Hozirgi bizning oldimizda turgan muhim masalalardan biri ijodkor va tadbirkor, o’z dunyoqarashiga ega shaxsni tarbiyalashda bu fanning o’rni nihoyatda beqiyosdir. Maktab ta’limida “ona tili” fanining o’qitilishi o’sib kelayotgan kelajak uchun mustaqil turmushga, o’z ona tilida yuksak ma’daniyat bilan so’zlasha olishga ega bo’lgan, bugun partada o’tirib ertaga jamiyatimiz, xalqimiz, millatimiz davomchilari bo’lmish yoshlarga juda keraklidir. Chunki so’zning qudrati hamma zamonlarda insoniyat uchun yuksak qudratga ega bo’lgan. Maktab ona tili kursi zimmasiga yuklatilayotgan asosiy vazifa o’quvchilarga nutq

⁵ G’ulomov A, Qodirov M, Ernazarova M, Bobomurodova A, Alavudinova N, Karimjonova V. ONA TILI O’QITISH METODIKASI. Toshkent-2012. 8-bet

⁶ Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. T. : “Manaviyat”, 2008, 47-48-bet

odobini o'rgatishdir. Sababi jamiyat rivojlanar ekan, ma'naviyat ham rivojlanishi kerak. Ona tili mashg'ulotida yana bolalar ijodiy fikrlashni, o'ylagan fikrini og'izaki va yozma tarzda erkin, to'g'ri va ravon ifodalashni o'rganadilar. Har bir bajaradigan ishimiz zamirida bir iqtisodiy manfaat turganidek, ta'lim sohasiga tikilayotgan sarmoyalardan ham natija kutilmoqdaki, tikilgan sarmoya ortig'i bilan qaytishi lozim. Bu fikrlarga "ona tili fani qanday iqtisodiy manfaat olib keladi?" degan savol tug'ilishi tabiiy, albatta. O'zbekistonda ta'lim sohasida qo'yilgan talablardan biri bu DTS talablaridir va bu talablar zamonamizga davr talablariga mos tarzda tuziladi. Ona tili fanining moddiy ko'rsatkichlari bolalarning imlo savodxonligi, so'z boyligi va undan foydalanish mahorati, mustaqil ijodiy fikr olishi, fikr mahsulini maqsadga muvofiq tarzda og'izaki va yozma shakllarda bayon qila olishi kabilarda namoyon bo'ladi.⁷

'quvchilarga maktabda ona tili fanini o'rgatmay turib biz ularga milliy til, an'ana, qadriyat, marosimlar, tarix haqida ma'lumot berolmaymiz va bu narsalarni o'rgata olmaymiz. Ona tili fani bu avlodlarni avlodlarga bog'lovchi zanjirdir, Sababi agar bizning yozma yodgorliklarimiz, yozma nutqimiz bo'lmaganda edi fan, texnika iqtisodiyot va boshqa yo'nalishlarda bo'lgan yangiliklarni avlodlarga yetkaza olmagan bo'lardik.

"Ma'lumki, o'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. On atili bu - millatning ruhidir"⁸,-deb muhtaram Birinchi Prezidentimiz ona tilini ulug'lagan edi.

Ona tilimiz bo'lgan o'zbek tili maktab darsliklaridan joy olgunga qadar bir qancha yo'llarni bosib o'tdi. Ular quyidagi bosqichlarga bo'linadi:

1. Birinchi bosqich. 1910-1930-yillar. Bu davrda madrasad o'qigan bolalarga savod chiqargandan keyin, qofiya (grammatika) va qofiyaning bo'limlari: sarf(morfologiya) va nahv(sintaksis) o'rgatilgan. Bolalarning xat-savod chiqarishi, qiroatxonligiga katta e'tibor berilgan.⁹ XX asrning boshlarida garchi hali ona tilimiz maktablarda fan sifatida o'rgatilmagan bo'lsa ham lekin o'quvchilarga til qoidalari o'rgatilar, ularning savodlarini chiqarish harakatlari boshlangandi. Bu yillarda Zahiriy, Fahriddinov kabi olimlarning tilga oid kitoblarida grammatik qoidalar berilayotgan edi. 1916-1917-yillarga kelib Zahiriyning "Imlo" kitobi maktablarda darslik sifatida o'rgatila boshalndi.
2. Ikkinchi bosqich. 1930-1960-yillar. Bu davrga kelib ona tili fani yuksala boshlandi. Maktablar uchun maxsus darsliklar, o'quv qo'llanmalari ishlab chiqila boshlandi.
3. Uchinchi bosqich. 1960-1970-yillar. Bu yillar yana ona tilimiz uchun tarixda qolarlik yillar bo'ldi. Hatto yuqori sinflarga ona tili fani chuqurroq o'rgatila boshlandi.
4. To'rtinchi bosqich. 1970-1990-yillar. Anchayin o'zgarishlar, yangilanishlar olib kirilgan ona tilimizdagi ma'lumotlar darsliklarga kiritila boshlandi. V sinf darsligiga putkuatsiya va sintaksisga oid qoidalar kiritila boshlandi. So'z yasalishi bo'limi esa ajralib chiqdi.
5. Beshinchi bosqich. 1991-yildan keyingi davr. Bu davrning eng asosiy kashfiyoti bu ona tili to'g'risidagi konsepsiyani ishlab chiqilishidir.

⁷ G'ulomov A, Qodirov M, Ernazarova M, Bobomurodova A, Alavudinova N, Karimjonova V. ONA TILI O'QITISH METODIKASI. Toshkent-2012. 31-32-bet

⁸ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. T. : "Manaviyat", 2008, 83-bet

⁹ G'ulomov A, Qodirov M, Ernazarova M, Bobomurodova A, Alavudinova N, Karimjonova V. ONA TILI O'QITISH METODIKASI. Toshkent-2012. 31-32-bet

Til fikrni shakllantirish va bayon qilish, taassurot, his, kechinmalarni ifodalashda muhim o'rin tutadi. Til jamiyat a'zolarining bir-biri bilan o'zaro aloqasi uchun xizmat qildigan vositadir. Bu vosita qanchalik takomillashsa, fikr shunchalik aniq, ta'sirchan ifodalanadi. Maktabda ona tilini chuqur o'rganish zarurati tilning mana shu asosiy vazifalaridan kelib chiqadi. K.D.Ushinskiy boshlang'ich maktab o'quv fanlari tizimida ona tiliga katta ahamiyat berib, uni markaziy va yetakchi fan hisoblaydi. "Ajoyib o'qituvchi bo'lgan ona tili bolaga ko'p narsani o'rgatadi. Bola ikki-uch yil ichida shuncha ko'p narsa o'rganadiki, ko'p narsa bilib oladiki, yigirma yil qunt bilan metodik jihatdan juda to'g'ri o'qiganda ham uning yarmicha o'rgana olmaydi. Ona tilini ulug' pedagogligi ham ana shundadir", – deydi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinflarda ona tilini o'rganishga katta ahamiyat beriladi. Ona tili – nutq, o'qish va yozish sohasidagi ko'nikma va malakalar o'quvchilar o'quv mehnatining zaruriy sharti va vositasi hisoblanadi. Bola o'qish ko'nikmalarini egallash bilan birinchi navbatda, o'z ona tilini o'rganishi zarur. Chunki ona tili bilimdonlikning, aql-idrokning kalitidir. Ona tili boshqa fanlarni o'qitish vositasi hamdir, jamiyat tarixi ham, tabiiy fanlar ham ona tili yordamida o'rganiladi. Demak, ona tili bolaning umumiy kamol topishida ham, bilim va mehnatga havasini uyg'otishda ham alohida rol o'ynaydi. Til muhim tarbiya vositasidir. Badiiy adabiyotlarni, gazeta, jurnallarni o'qigan bola o'zida eng yaxshi xislatlarni tarbiyalab boradi. Muomala madaniyatini egallaydi. Ona tili boshlang'ich sinfda asosiy o'rinni egallar ekan, har bir o'quvchida ona tiliga qiziqish va muhabbatni tarbiyalash zarur. Boshlang'ich sinflarda ona tili mashg'ulotlari turi va mazmuni quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. O'qish, yozuv, grammatik materialni o'rganish, kuzatishlar hamda o'quvchilarning ijtimoiy faoliyatlari bilan bog'liq holda ularning og'zaki va yozma nutqini o'stirish.
2. Birinchi sinfga kelgan bolalarga savod o'rgatish, ya'ni ularni elementar o'qish va yozishga o'rgatish, bu kamchiliklarni malakaga aylantirish.
3. Adabiy til normalarini, ya'ni imloviy va punktuasiyasi savodli yozuvni, orfoepik to'g'ri talaffuzni o'rganish nutq va uslubiy elementlarni egallash.
4. Grammatika, fonetika, leksikadan nazariy materiallarni o'rganish, tildan ilmiy tushunchalarni shakllantirish.
5. O'quvchilarni o'qish va grammatika darslari orqali badiiy, ilmiy-ommabop va boshqa adabiyotlar namunasi bilan tanishtirish, ularda adabiy asarni idrok etish ko'nikmasini hosil qilish¹⁰.

Yuqoridagi vazifalarning barchasini ona tili fani asosiy predmet sifatida o'rgatadi. Ularda ifodalangan barcha mashg'ulotlar ona tili dasturida aks etgan. Dastur davlat hujjati hisoblanib, unda boshlang'ich sinf o'quvchisi o'rganishi lozim bo'lgan barcha bilim, ko'nikma va malakalar berilgan bo'ladi. O'qituvchi va o'quvchilar ona tili fanini shu dastur asosida olib boradilar va unda berilgan talablarga ko'ra ish tutadilar.

Boshlang'ich sinflarning ona tili dasturi ikki qismdan iborat:

1. Uqtirish xati.
2. Asosiy qismi.

¹⁰ Qosimova K.Matchonov S.G'ulomova X.Yo'ldosheva Sh.Sariyev Sh.ONA TILI O'QITISH METODIKASI."Bayoz" Toshkent.2022.14-bet

Uqtirish xatida ona tili fanining tutgan o'rnini, uning vazifalari ko'rsatilib, metodik yo'l yo'riqlar beriladi.¹¹

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, ona tili juda uzoq yillar davomida, qanchadan qancha olimlarning fidoyiligi evaziga bugungi darajaga yetdi. Biz yoshlar bu fidoyiliklarni bilgan holda o'z ona tilimizni asrashimiz va bu boyligimizni kelajak avlodga hozirgidan ham mukammalroq ilib yetkazishimiz kerak. Zero, ona tili yashasa butun bir millat yashaydi.

References:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. T. : "Manaviyat",2008.
2. G'ulomov A, Qodirov M, Ernazarova M, Bobomurodova A, Alavudinova N, Karimjonova V. ONA TILI O'QITISH METODIKASI.Toshkent-2012.
3. Qosimova K. Matchonov S. G'ulomova X. Yo'ldosheva Sh. Sariyev Sh. ONA TILI O'QITISH METODIKASI."Bayoz"Toshkent.2022.12-13-bet
4. Normatov U. "Ona tili o'qitishning dolzrb muammolari", -T.: 2008 y
5. www.pedagog.uz
6. www.tdpu.uz
7. https://uz.wikipedia.org/wiki/Ona_tili



¹¹ Qosimova K.Matchonov S.G'ulomova X.Yo'ldosheva Sh.Sariyev Sh.ONA TILI O'QITISH METODIKASI."Bayoz"Toshkent.2022.16-bet